8

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARAQAND DAVLAT UNIVERSITETINING
KATTAQO‘RG‘ON FILIALI

Ro‘yxatga olindi:
№_____
2023 yil “__”_____

“TASDIQLAYMAN”
SamDU KF direktori:
_____ Sh.R.Urakov
2023 yil “31” 08

UMUMIY PEDAGOGIKA FANINING O’QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000- Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60110800-Biologiya 60110600-Matematika va informatika 60110200 – Maktabgacha ta’lim 60111400-O’zbek tili va adabiyoti 60111700-O’zga tili guruhlarda rus tili 60111800-Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili

Kattaqo’rg’on 2023

Fan/mavzu kodi PED208	O'quv yili 2024-2025	Semestr 3-4	Kreditlar 8
Fan/mavzu turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4

	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	Umumiy pedagogika	120(60/50/10)	120	240

2. **I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad –bo'lajak o'qituvchilarni Umumiy pedagogika fanining nazariy-tarixiy asoslari bilan tanishtirish va zamonaviy o'qituvchi maboratiga doir bilimlar bilan qurollantirish, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Pedagog maqomi to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi hamda PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1059-sonli "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda sohaga oid boshqa normativ hujjatlarda belgilangan talablar asosida uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonini oqilona tashkil etish, pedagogik merosdan samarali foydalanish, real ta'lim amaliyotida yuksak pedagogik madaniyat va texnikani namoyon eta olishga o'rgatish.

Fanning vazifasi :

- Bo'lajak o'qituvchilarda Vatanga sadoqatlilik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mas'uliyatlilik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni rivojlantirish;
- Davlat va jamiyatning pedagogika sohasi oldiga qo'ygan talablari va vazifalarini ongli ravishda bo'lajak o'qituvchilarga yetkazish;
- talabalarni milliy va innovatsion pedagogik foliyatni samarali tashkil etishga o'rgatish;
- o'quv tarbiya jarayonini samarali boshqarish, o'quv-me'yoriy hujjatlar bilan ishlash hamda ta'lim olganlikni tashxis etish qonuniyat va tamoyillari bilan tanishtirish;
- o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ish yo'nalishlari hamda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni o'qitish va rivojlantirish mazmunini o'zlashtirish;
- milliy va jahon pedagogik fikrlari taraqqiyoti bilan tanishtirishhamda pedagogik merosdan samarali foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- global doira ta'lim tizimi rivojlanishining holati,asosiy yo'nalishlari va

qonuniyatlarini tahlil etish, milliy va hududiy o'ziga xosliklardagi umumiy ko'rinishlarni ochib berish, xalqaro pedagogik tajribaning ijobiy va salbiy jihatlari, milliy pedagogik madaniyatni boyitish shakl va metodlarini aniqlashtirish;

➢ talabalarni o'qituvchi faoliyatida kasbiy mahoratning tutugan o'rni mazmun-mohiyatiga doir nazariy bilimlar hamda pedagogik faoliyatning turli ko'rinishlarida o'qituvchining muomila madaniyati, o'quvchilar bilan aloqa o'rnatish va muloqotga kirisha olish metodikasini to'liq o'zlashtirishlariga erishish;

II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-MODUL. UMUMIY ASOSLAR

1. Yangi O'zbekistonda ta'lim tizimini rivojlantirishning konseptual asoslari.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi hamda PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1059-sonli "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

2. Pedagogika fan sifatida.Pedagogika fanining rivojlanish tarixi

Pedagogika fan sifatida. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari. Pedagog kasbining jamiyatdagi o'rni va unga qo'yiladigan talablar. "Pedagog maqomi to'g'risida"gi Qonun. Zamonaviy o'qituvchining kompetentligi va uning mazmun mohiyati.

3. Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi.

"Individ" va "Shaxs" tushunchasi. Shaxs rivojlanishining yosh davrlari va ularning xususiyatlari. Shaxs rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar. Shaxs rivojlanishining ijtimoiylashuv bilan aloqadorligi.

4. Didaktika – pedagogik ta'lim nazariyasi. O'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida.

Didaktikaning predmeti va vazifalari. Zamonaviy pedagogikada ta'lim paradigmalari. O'quv jarayoni va uning vazifasi. Ta'lim tamoyillari va qonuniyatlari.

5. Ta'lim mazmuni. Davlat ta'lim standarti.

Ta'lim mazmuni tushunchasi. Hozirgi davrda ta'lim mazmunini aniqlashning asosiy g'oyalari. Umumiy o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim mazmunini shakllantirish tamoyillari va ta'lim mazmunini tanlash mezonlari. Davlat ta'lim standartlari va malaka talablari.

6. Ta'lim metodlari va vositalari.

Ta'lim metodlari mohiyati. O'qitishning interaktiv va evristik metodlari. Ta'lim metodlarini tanlab olish shartlari. Ta'lim vositalari va ularning funksiyalari.

7. Ta'limni tashkil etish shakllari va turlari.

Ta'limni tashkil etish konsepsiyasi va uning rivojlanish tarixi. Dars – ta'limni tashkil etishning asosiy shakli. Darsning turlari va tuzilishi. Nostandart darslar. Ta'limni tashkil etishning yordamchi shakllari. O'qituvchining darsga tayyorgarligi. Innovatsion darslar. Kognitiv ta'lim.

8. STEAM ta'limi. Iqtidorli o'quvchilarni o'qitish.

STEAM ta'limi. Zamonaviy iqtidorlilik konsepsiyasi. Iqtidorli bola shaxsining o'ziga xosliklari va ular bilan ishlash. Prezident maktablari va ijod maktablari.

9. O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini tashxislash.

Pedagogik tashxisning mohiyati. Pedagogik tashxis tamoyillari. Bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini baholash mezonlari.

10. Xalqaro baholash dasturlari va uning metodologiyasi.

TIMSS. PIRLS, PISA, TALIS, EGMA xalqaro baholash dasturlari va ularning mazmun mohiyati.

2-MODUL. TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA MAZMUNI

11. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari.

Tarbiyaning maqsadi, umumiy vazifalari va o'ziga xos xususiyatlari. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari. O'quvchilar jamoasini shakllantirish mohiyati va tashkiliy asoslari.

12. Tarbiya metodlari tasnifi.

Tarbiya metodlarini mazmuni. Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar. Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantirish. Pedagogik rag'batlantirish va xulq atvorni tuzatish metodlari. Xalq pedagogikasida tarbiya metodlari.

13. Tarbiya turlari va ularning mazmuni.

Tarbiya turlari (aqliy, mafkuraviy, ma'naviy-axloqiy, fuqarolik, huquqiy, ekologik, estetik, jismoniy, mehnat tarbiyasi) O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish. Mafkuraviy va fuqarolik tarbiyasi.

3-MODUL. PEDAGOGIK MENEJMENT

14. Ta'lim muassasasi menejmenti.

Ta'lim muassasasini boshqarish. Ta'lim muassasasi Ustavi. Metodik ishlarni tashkil etish. Ta'lim sifati monitoringi.

15. O'quvchilarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish.

Axborot iste'moli madaniyati. Shaxsiy axborot xavfsizligi. Talabalarda axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi.

4-MODUL. MAXSUS PEDAGOGIKA

16. Korreksion pedagogika asoslari.

Imkoniyati cheklangan bolalar va ularning umumiy tavsifi. Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari. Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimi.

5-MODUL. PEDAGOGIKA TARIXI

17. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha Markaziy Osiyoda ta'lim-tarbiya jarayonlari.

Pedagogika tarixi fanining maqsad va vazifalari. Ta'lim-tarbiy va pedagogika tarixini davrlashtirish muammolari. Avesto – antik davr madaniyati yodgorligi. Eng qadimgi yozma manbalar.

18. Sharq Uyg'onish davri (1-va 2-Renesans)da ta'lim-tarbiya rivoji.

Islom dinining tarqalishi va ta'lim-tarbiyaga ta'siri. Musulmon maktablari va unda ta'lim-tarbiya mazmuni. Tabiiy fanlar rivoji. Islom huquqshunosligida ta'lim-tarbiya masalalari. Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari.

19. XVI asr -XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ta'lim-tarbiya.

Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida ta'lim-tarbiya. Maktab va madrasalarda ta'lim mazmuni.Chor Rossiyasining ta'lim siyosati. Turkistonda jadidchilik harakati.

20. Eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi.

Qadimgi Yunonistonda ta'lim-tarbiya. G'arb olimlarining pedagogik qarashlari.Yevropa mamlakatlari pedagog olimlarining pedagogik qarashlari.

21. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi

Finlandiya ta'lim tizimi, Yaponiya ta'lim tizim, Janubiy Koreya ta'lim tizimi,

6-MODUL. IJTIMOIY PEDAGOGIKA

22. Ijtimoiylashuv - ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida.

Ijtimoiylashuv tushunchasi, jarayoni, vositalari, mexanizmi, omillari. Oila bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat. Ijtimoiy pedagogning maktab yoshidagi bolalar bilan olib boradigan faoliyati.

23. Me'yoridan og'ish va deviatsiya – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida.

Deviant xulq-atvorli bolalar bilan ijtimiy-pedagogik faoliyat yuritish. Giyohvand hamda spirtli ichimliklar iste'mol qiladigan o'smirlar bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyat yuritish. Ijtimoiy pedagogik faoliyat metodikasi va texnologiyalari.

7-MODUL. PEDAGOGIK KONFLIKTOLOGIYA

24. Pedagogik konfliktologiyaning ilmiy-nazariy asoslari.

Konfliktologiyaning fan sifatida yuzaga kelishi. Konfliktlarning namoyon bo'lish shakllari va turlari. Konflikt signallari. Konfliktli vaziyatda agressiya va

zo'ravonlik.

25. Pedagogik konflikt(nizo)larning turlari.

O'quvchilar va tengdoshlari o'rtasidagi konfliktlar. O'qituvchi-o'quvchi o'rtasidagi konfliktlar. Ta'lim muassasasi rahbar xodimlari va o'qituvchilar o'rtasidagi konfliktlar. Jamoadagi konfliktlarni boshqarish tartiblari. Dars intizomiga salbiy munosabatdagi bolalarga nisbatan konstruktiv yondashuv.

8-MODUL. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT.

26. Pedagogik texnologiyalar – ta'lim jarayoni samaradorligi omili.

Pedagogik texnologiyalarning paydo bo'lishi, taraqqiyoti va asosiy tushunchalari. Pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, tamoyillari va turlari.

27. Pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari.

O'quv jarayonini tashkil etishning innovatsion shakllari, metodlari va vositalari. Modulli kredit texnologiyasi. "Blended learning" va "Flipped learning" texnologiyalari. Vebinar texnologiyalar. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. Muammoli o'qitish texnologiyasi. O'yinli texnologiyalar. Tanqidiy fikrlashni o'stiruvchi faol metodlar.

28. Pedagogik mahorat asoslari.

Pedagogik mahorat haqida tushuncha. Pedagogik mahoratni egallash vositalari. O'qituvchilik kasbining tarixiy taraqqiyoti. Pedagogik mahorat xususida Sharq va G'arb mutafakkirlarining fikrlari

29. O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat.

Qobiliyatning pedagogik-psixologik tavsifi. Pedagogik qobiliyatning asosiy sifatlari va xususiyatlari. Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish funksiyalari. Pedagogik ta'sir ko'rsatish. Pedagogik muloqotni tashkil etish yo'nalishlari. Pedagogik nazokat va odob-axloq.

30. Pedagog faoliyatida pedagogik texnikaning roli.

Pedagogik texnika haqida ma'lumot. Pedagogik texnika xususiyatlari. Pedagogik texnikani egallash mahorati. Nutq texnikasi va notiqlik madaniyati. Nutq texnikasini egallash.

III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni
2. Pedagogika fanining maqsad va vazifalari. Pedagogika fanining tarmoqlari.
3. Shaxs rivojlanishining yosh davrlari va ularning xususiyatlari.
4. O'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida
5. Ta'lim mazmuni tushunchasi va ta'lim funksiyalari
6. Ta'lim metodlari va vositalarini tanlab olish shartlari
7. Ta'limni tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllari
8. STEAM ta'limi va uning mazmun mohiyati.

9. Bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini baholash mezonlari.
10. TIMSS. PIRLS, PISA, TALIS, EGMA xalqaro baholash dasturlari va ularning mazmun mohiyati
11. O'quvchilar jamoasini shakllantirish mohiyati va tashkiliy asoslari
12. Tarbiya metodlarini tanlab olish va ulardan foydalanish imkoniyatlari
13. Tarbiya turlari (aqliy, mafkuraviy, ma'naviy-axloqiy, fuqarolik, huquqiy, ekologik, estetik, jismoniy, mehnat tarbiyasi)
14. Ta'lim muassasasi nizomi va pedagogik kengash faoliyati
15. Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimi.
16. Ta'lim-tarbiya va pedagogika tarixini davrlashtirish muammolari.
17. Islom huquqshunosligida ta'lim-tarbiya masalalari.
18. Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari. (IX-XII va XIV asrning ikkinchi yarmidan XVI asrlar)
19. Turkiston o'lkasida jadidchilik harakating yuzaga kelishi.Jadidchilik maktabi.
20. Ijtimoiy pedagogning maktab yoshidagi bolalar bilan olib boradigan faoliyati
21. Konfliktlarning namoyon bo'lish shakllari va turlari.
22. Pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, tamoyillari va turlari
23. Pedagogik mahorat haqida tushuncha. Pedagogik mahoratni egallash vositalari
24. Pedagogik qobiliyatning asosiy sifatlari va xususiyatlari
25. Nutq texnikasi va notiqlik madaniyati

IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O'z mutaxassisligidan kelib chiqib dars ishlanmasi tayyorlash va dars tahlilini amalga oshirish.

2. Ta'lim mazmuni tashkil ettiruvchi me'yoriy hujjatlarni tahlil etish.

3. Xalqaro baholash dasturlari talabi asosida topshiriqlar bankini ishlab chiqish. (PIRLS, PISA, TIMSS, TALIS)

4. Tarbiya turlari bo'yicha tadbir ssenariylarini tayyorlash.

5. Pedagogik nizolar va ularni yechish yo'llarini tahlil qilish.

Amaliy mashg'ulotlarda mavzularga oid amaliy topshiriqlar bajarish, jadval va diagrammalar to'ldirish, dars ishlanmalari yozadi, me'yoriy hujjatlarni tahlil qiladi, dars jadval tuzadi, qiyosiy o'rganadi, xalqaro baholash dasturlariga oid topshiriqlar ishlab chiqadi, tarbiya turlari bo'yicha ssenariylar yozadi va sahnada namoyish etadi, pedagogik nizolar bo'yicha keyslar ishlab chiqadi .

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- Taqdimot tayyorlash;

- rasmli topshiriq tuzish;
- glossariy tuzish;
- Ma'lumotlarni jadval ko'rinishida ifodalash (T-jadval, Konseptual jadval, Axboriy tahlil:Fakt-argument);
- Grafik organayzerlardan foydalanib ma'lumotlarni tahlil qilish;
- Videorolik tayyorlash;
- Ko'rgazmali qurol tayyorlash;
- Bir soatlik dars ishanma tayyorlash;
- Krossvord tuzish;
- Xorijiy adabiyotlardan ma'lumotlarni to'plash, tarjima qilish va tahlil qilish;
- Internet ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish;
- Adabiyotlar ro'yxatini tuzish;
- Ilmiy maqola yozish;
- Esse yozish.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzulari:

1. O'qituvchining jamiyatda tutgan o'rni mavzusida videorolik tayyorlash.
2. Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashda yoshlarni ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish masalalari.
3. Shaxsga ta'sir etuvchhi omillarning har biriga hikoya tuzish.
4. "4 K" modeli va uning mazmun-mohiyatini yoritib bering.
5. Pedagog kasbining mohiyati.
6. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimi ravnaqi.
7. Ta'limning tizimlilik va izchillik prinsplarini amalga oshirish qoidalarini mutaxassisligingizga oid mavzu misolida taqdimot qiling.
8. Ta'lim mazmunining belgilanishi va uning tarixiy xarakterini tahlil qiling.
9. Mutaxassisligingizga oid Pedagogiga darsligi (Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. - T.. "Sahhof", 2023, 416 b)dagi biror mavzu asosida noan'anaviy shakldagi mashg'ulot uchun ishlanma tuzing.
10. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari ish hujjatlari bilan tanishish va tahlil qilish (maktab ish rejalari, pedagogik kengash, metodik kengash, sinf rahbari ish rejasi)
11. O'z muta xassisligingiz bo'yicha DTS talablarini o'rganish asosida ma'lumot tayyorlang.
12. "Tarbiya jarayonida davlat ramzlaridan foydalanish" mavzusida 1-11-sinflar uchun dars ishlanmasi tayyorlang.
13. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish.
14. Axborotlarni mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini egallash.
15. Qur'oni Karim va Hadisi shariflarda ta`lim-tarbiya masalalari
16. Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari va ustoz-murabbiyga qo'ygan talablarini o'rganib taqdimot tayyorlang (Muso al -Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino)
17. Temuriylar davridagi uyg'onishning g'oyaviy omillari va

	temuriyzodalarning ta'lim-tarbiyaga qo'shgan hissasi. 18. Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniylarning asarlarida ta'lim-tarbiya masalalari. 19. "Qobusnoma", "Temur tuzuklari" "Boburnoma", "Xumoyunnoma" asrlarining pedagogik mazmuni. 20. Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning "Odob-as solihin" asari tahlili. 21. Abdurauf Fitrat asarlarida oilaviy tarbiya masalalari. 22. Abdulla Avloniy asarlaridan vijdon tarbiyasi masalalari. 23. Adolf Disterverg, Iogan Genrix Pestalotsi, jan Jak Russo, Konstantin Dmitrevich Ushinskiy, Vasiliy Aleksanrovich Suxomilinskiylarning pedagogikaga qo'shgan hissasi. 24. Germaniya ta'lim tizimi, AQSH ta'lim tizimi, Fransiya ta'lim tizimi va Rossiya ta'lim tizimi 25. Turizm pedagogikasining o'quvchilarda vatanparvarlikni tarbiyalashdagi imkoniyatlari. 26. Alohida ta'limga ehtiyoji bor bolalar ta'lim-tarbiyasini tashkil qilish masalalari 27. An'anaviy o'zbek oilalarida farzand tarbiyasi masalalari: yutuqlar, muammo va yechim. 28. Bolalarda kechuvchi ijobiy va salbiy kechinmalarni so'zda tasvirlang va sharhlang. 29. Mahalla sog'lom milliy ijtimoiy muhit maskani ekanligi borasida ijtimoiy rolik tayyorlang. 30. Samarqand pedagogika maktabi: kecha, bugun va ertaga.
3.	**V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** **Talaba bilish kerak:** • Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari; pedagogikaning ilmiy-nazariy asoslari, pedagogik fikrlar rivojlanish taraqqiyoti, pedagogik mahoratning ilmiy asoslari, pedagogik madaniyat va texnikaning mohiyati, o'quv jarayonini tashkil etishning metod va shakllariga qo'yilgan zamonaviy talablar, ta'lim oluvchilar shaxsini rivojlantirish omillari, buyuk allomalar, pedagog olimlarning ta'lim bilan bog'liq eng yaxshi g'oyalarini tahlil qilish, taqqoslay olishilozim; • Milliy g'oya va asosiy pedagogik qonuniyatlar hamda tamoyillarga asoslangan holda o'quv-tarbiya ishlarini o'tkazish, ta'limni tashkil etishning asosiy shakllarini amaliyotda qo'llash, ta'lim-tarbiyaga oid amaliy vazifalarni hal etish, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash, o'z-o'zini boshqara olish, o'zaro ta'sir etish va hamkorlikda ishlash qobiliyatiga ega bo'lish zarur; • Pedagogik-psixologik adabiyotlar bilan ishlash; zarur metodik yo'riqnomalar tuzish; pedagogik texnologiya va axborot texnologiyalaridan foydalana olish; tarbiyaviy ishni rejalashtirish va amalga oshirish;pedagogik vazifalarni hal etishda doir standart bo'lmagan yondashuvlarni izlab topish

	layoqatiga ega bo'lishi lozim.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • *ma'ruzalar; interfaol, keys stadi, munozara* • *interfaol keys-stadilar;* • *diologik yondoshuv* • *SWOT tahlili* • *Venn diagrammasi* • *Blits so'rov* • *nilufar guli* • *baliq skleti* • *kim chaqqon* • *blits so'rov* • *blits test va boshqalar*
5.	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat, mustaqil ta'lim shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha nazorat ishini topshirish.
6.	**VIII. Asosiy adabiyotlar** 1. O'zbekiston Respublikasining 637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007 2. O'zbekiston Respublikasining 901-sonli "Pedagog maqomi to'g'risida"gi Qonuni. https://lex.uz/docs/-6786401 3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. https://lex.uz/docs/-4312785 4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. https://lex.uz/docs/-4545884 5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1059-sonli "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. https://lex.uz/docs/-4676839 6. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: " Sahhof ", 2023, 416 b 7. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: "Sano-standart", 2017 8. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009, 232 b 9. Ahmedova M. Pedagogik konfliktologiya. O'quv qo'llanma. – T.: "Donishmand ziyosi", 2020, 304 b 10. Qodirova F., Pulatova D. Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika. Darslik. – Chirchiq.:, 2022 y 11. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya" 2011, 420 b

	12. Azizxodjayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006, 160 b 13.Fayziyev M. Pedagogik mahorat va pedagogik akmeologiya. Uslibiy qo'llanma. - Samarqand.: "Fan bulog'i" nashriyoti, 2023, 154 b **IX. Qo'shimcha adabiyotlar** 1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston strategiyasi.-Toshkent, 2021. -458 b. 2. Musurmanova O. Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligi omili. Monografiya. T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020, 184 b 3. Usarov J va b. Pedagogik kompetentlik. O'quv qo'llanma. – T.: "Malik print CO", 2021, 244 b 4. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. O'quv qo'llanma. –T.: "O'qituvchi" 2004, 104 b 5. Mutalipova M. Xalq pedagogikasi. O'quv qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiya", 2015, 160 b 6. Piz Allan. Tana tili. – T.: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2016,196 b **Axborot manbaalari** 7. http://www.edu.uz–O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti. 8. http:www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti. 9. http://www.gov.uz– O'zbekiston Respublikasi xukumati portali. 10. www.pedagog.uz 11. http://www.ziyonet.uz/ 12. http://www.redlib.ru 13. http://www.lex.uz
7.	Fan dasturi SamDU Kattaqo'rg'on filiali o'quv-uslubiy kengashining 2023 yil "31" avgust 10 -son bayonnomasi bilan ma'qullangan
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari:** T.E.Eshquvvatov – SamDU Kattaqo'rg'on filiali Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim,sport kafedrasi v/b dotsenti I.Madatov - SamDU Kattaqo'rg'on filiali Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim,sport kafedrasi v/b dotsenti
9.	**Taqrizchilar:** SH.Mustafoyev- SamDU Kattaqo'rg'on filiali Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim,sport kafedrasi dotsenti, DSs (ichki) E.Abdumannatov – O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi dotsenti (tashqi). D.Qurbonova - O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi assistenti (tashqi).